

4-dars. Takrorlash. To'g'ri to'rtburchak va kvadrat



1. Qushlar o'tirgan qo'ndoblarning uzunligini santimetrlarda o'lchang.



Ko'pburchakning perimetri uning tomonlari uzunliklari yig'indisiga teng.




$$P_{\square} = a + b + a + b$$

$$P_{\square} = 6 + 2 + 6 + 2$$

$$P_{\square} = 16 \text{ (cm)}$$



2. Jasur simdan uchburchak yasadi. Uning perimetrini hisoblang.



3. Akmal o'z to'tisining fotosuratiga ramka tayyorlamoqda. Agar ramkaning bo'yi 6 dm, eni 4 dm bo'lsa, uning perimetrini toping.



4. Hisoblang.

$$45 + 12 + 11$$

$$64 + 14 - 32$$

$$84 - 10 - 21$$

$$28 - 17 + 46$$

$$24 + (98 - 83)$$

$$56 - (31 + 12)$$



5. Tovuqlar uchun 30 kg, o'rdaklar uchun esa tovuqlarnikidan 10 kg kam yem xarid qilindi. Parrandalar uchun jami necha kilogramm yem xarid qilingan?




6. Taqqoslang. Hisoblamasdan javob topishga harakat qiling.



$$3 + 6 \square 5 + 12$$



$$7 + 6 \square 4 + 6$$



$$2 + 5 \square 15 + 2$$



7. Hisoblang. Harflarni ko'rsatilgan tartibda joylashtiring va qush nomini o'qing. Bu qushning tuxumi tovuq tuxumiga qaraganda foydaliroq hisoblanadi.

A $23 + 42$

E $15 + 21$

I $60 + 30$

O $37 + 31$

K $89 - 41$

N $50 - 20$

B $72 - 52$

D $79 - 63$



8. Tengliklar to'g'ri bo'lishi uchun katakchalar ichiga $+$ va $-$ belgilaridan mosini qo'ying.

$$4 \square 6 \square 3 = 7$$

$$8 \square 7 \square 5 = 6$$



9. Tomoni 4 cm bo'lgan kvadrat chizing. Bu kvadratning perimetrini toping.



10. Hisoblang.

$$24 + 22 + 32$$

$$56 - 12 - 23$$

$$14 + (43 + 21)$$

$$89 - 17 - 20$$

$$43 + (16 + 40)$$

$$84 - (43 - 10)$$

